

ICHKI ISHLAR TIZIMIDA O`ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O`QITISHNING AHAMIYATI

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (IIV) Akademiyasi O'zbek tili va xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD (Filologiya fanlari nomzodi)

Karimova Gulshod Mamatkadirovna

+998974121005

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda mavjud sohalarda, shu jumladan ichki ishlar tizimida davlat tili va adabiyotni o`qitishning ahamiyati muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, ichki ishlar tizimi, metod, texnologiya.

KIRISH

Mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishi uchun ona (o'zbek) tilimizning ahamiyati kattaligini azaldan mutafakkirlarimiz, tilshunos - olim va tajribali pedagoglarimiz ko'p ta'kidlashgan, shu maksadda davlat miqyosida tegishli buyruq, qaror va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri"dek rivojlangan davlatni barpo qilishda jamiyat a'zolarining Ona tilinibilishining o'zigina kifoya qilmay, balki unda savodli ish yurita olishi eng katta dolzarb masala hisoblanadi. Buning uchun hozirgi kunda ko'plab munozaralarga sabab bo'layotgan lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosini qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash, har bir fuqaroimizning o'zbek tilida savodli, to'g'ri jumla va matnlar tuzaolish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali milliy g'ururni ko'tarishga karatilgan turli tadbirlar tashkil qilinishi, qo'llanma va ishlanmalar yaratilishi, hamda O'zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil qilinganligini aytib o'tishimiz lozim.

ASOSIY QISM

Ichki ishlar tizimi shunday faoliyat yuritadiki, har qadamda ona tili ko'nikmalaridan boxabarlik talab etiladi. Kadrlarning ona tili bo'yicha salohiyati faoliyatning har bir jabhasida ko'rinib turmog'i lozim. Mamlakatimiz rivojlanishida ona tili bilan bir qatorda boshqa xorijiy tillarni hamma soha vakillari, oddiy hunarmand yoki sportchidan tortib to malakali mutaxassis, idora xodimi uchun V2 – S1 darajada bilish taqozo etayapti.

Biroq amaldako'plab o'quvchi va talabalarimiz nafaqat xorijiy tilda, balki o'z ona tilida ham o'z fikr munosabatini bildirishda qiynalishadi. Ular ko'p ma'lumotlar o'qishadi, tinglashadi, ularni bemalol tushunishadi, lekin og'zaki yoki yozma fikr bildirishda to'liq o'zini namoyon qila olmaydi. Mazkur holatni dalili sifatida, hozirda urf bo'lgan IELTS bo'yicha imtihon topshirganlar orasida o'qish va tinglab tushunish bo'yicha maksimal (8-9), biroq yozuv va gapirish malakalari bo'yicha o'rtachadan

yuqoriroq (6- 7) natijalaridako‘ramiz. Bu ko‘rsatkichlar bundan 8-10 yil oldinga nisbatan juda o‘sgan, u paytda IELTS bo‘yicha maksimal 6-6,5 olgan bo‘lishsa, bugungi kunda esa maksimal 8 va hatto 8,5 olganlar soni ko‘pchilikni tashkil qilmoqda.

Til ta‘limida AQSh psixolingvisti Stiven Krashen tomonidan taklif qilingan “*kiruvchi va chiquvchi materiallar (the input and the output)*” degan gipoteza mavjud bo‘lib, unga ko‘ra *kiruvchi material (the input)* bu til o‘rganuvchilar tinglash yoki o‘qish paytida o‘rganilmish tilga ochiqligi (retseptiv malakalar), *chiquvchi material (the output)* esa aksincha, gapirish va yozuvda aks etgan til (produktiv malakalar) nazarda tutilgan [3]. Kiruvchi material manbai ko‘pchirali bo‘lib unga o‘qituvchi, kitoblar, til o‘rganuvchilarning o‘zlari, ommaviy hamda ijtimoiy axborot vositalari va boshqalar kiradi. Chiquvchi material manbai esa bitta, til o‘rganuvchidir.

Retseptiv va produktiv malakalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, to‘rttala malakalarni *o‘qish va tinglab tushunish* (kiruvchi material), hamda *gapirish va yozuv* (chiquvchi material) ni teng taqsimlangan holda samarali o‘rgatishning bir qancha metodlari va texnologiyalari zamonaviy chet til o‘qitish metodikasida ishlab chiqilgan va dunyo bo‘ylab keng qo‘llanilib kelinmoqda. Biroq xanuzgacha bizning davlat muassasalarida o‘rgatilayotgan xorijiy tilda ko‘proq kiruvchi material yaxshi o‘zlashtirilmoqda, buning birinchi sababi esa, eski metodikaning hanuzgacha qo‘llanilishi. Shuning uchun aynan gapirish va yozuv malakalari imtihonlarida yuqori natijaga erishish qiyinchilik tug‘dirmoqda.

Ikkinchi sababi, ushbu produktiv malakalarning ona tilining o‘zida ham yaxshi shakllanmaganligi va rivojlanmaganligida deb ko‘rsatish mumkin. Bizning zamonaviy o‘zbek tili va adabiyotini o‘rgatish/o‘rganishda asosan sobiq Sovet tuzumi ta‘siri natijasini kuzatamiz. Chunki mustamlakachilik bizni faqat tinglashga va o‘qishga o‘rgatgan, erkin fikrlash va bayon etganlarning esa taqdiri hammamizga ma‘lum. Ona tilimizda fikrni og‘zaki bayon qilish, ya‘ni nutqni qanday rejalash, suhbatda nimalarga e‘tibor berish (m., takroriy so‘zlardan qochish), kirish so‘zlariva bog‘lovchilar qo‘llash, yakunlash, suhbatda savol-javob olib borish qoidalari – o‘quvchilarimizga boshlang‘ich sinfdan o‘rta maktabni bitirgunga qadar o‘rgatilib mutahkamlanib borilishi lozim. Shundagina o‘z ona tilida bunday ko‘nikmaga ega bo‘lgan o‘quvchi – uni boshqa tilda ham amalga oshira oladi. Chunki chet til o‘rgati(ni)sh jaraenida ona tili xorijiy tilni o‘rganishga ta‘sir etadi (interferensiya hodisasi). O‘z ona tilida ma‘lum til ko‘nikmalariga ega bo‘lmagan o‘quvchi xorijiy tilni mukammal o‘rgana olmaydi. Biz, xorijiy til o‘qituvchilari o‘z ona tilida og‘zaki fikr bayon eta olmaydigan o‘quvchidan unga mutlaqo begona tilda gapirishni o‘rgatishga harakat qilamiz. Tegishli natijani sezmagach, kamchilik o‘quvchining so‘zlarni va grammatikani bilmasligida deb hisoblab, yana avvalgi metodga qaytamiz, ya‘ni grammatika, leksika, matnlar ustida ishlaymiz yoki tinglab tushunishlari uchun audio qo‘yib beramiz, ular asosida testlar o‘tkazamiz va bu bilan oliy o‘quv yurtining xorijiy

til bo'yicha kirish testlariga tayyorlab o'z manfaatimizni ko'zlaymiz, ularning kelajakda xorijiy tildan bimalol foydalana olishlari haqida deyarli o'ylamaymiz.

Xalqaro standartga asoslangan til kompetensiyalari testlari (CEFR, IELTS, TOEFL) esa retseptiv malakalar bilan bir qatorda, produktiv malakalar– ma'lum mavzularda suhbat qura olish, munosabatini gapirish, jadval, jarayonyokitasvirlarni og'zaki yoki yozmabayon etish va insho yozish ko'nikmalarini, ya'ni biz ko'zdan qochirayotgan tildan foydalana olish darajasinibaholaydi. O'rta maktab o'zbek tili darslarimizda odatdanglangan matnni bayon qilib yozish, hamda adabiy, adabiy-ijodiy va erkin insho turlarini yozish ko'nikmalari o'rgatiladi. Vaholanki IELTS testini topshirayotgan talabgoryozuv malakasi bo'yicha 7 xildagi tasvirni bayon etish va 5 xil inshoni yoza olish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan birga da'vogarlik qilayotgan (5-9; V1-S2) darajaga mosgrammatik va leksik ko'nikmalarini namoyon eta olishi lozim. Mazkur talablarga muvofiqlikni hamma o'quvchilar ham birinchi yoki ikkinchi urinishda ko'rsata olmayapti. Yuqori natijalar esa ko'plab urinishlardan so'nggina erishilmoqda.

Buyuk mutafakkir-olimlar avlodi sifatida asl notiqlik san'atimiz, suhbat olib borish, yozuvning turlaridan biri bo'lgan inshoning xillari va uni yozish uslublarimizni tiklash bilan birga xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida bu usullarniona tilimizda ham qo'llashimiz vaqti keldi. Chunki bu jarayon ichki ishlar tizimining ajralmas, dolzarb qismidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Behbudiy M. Ikki emas, to'rt til lozim. Oyna jurnali. T., 2013. 1-son, B. 12-14.
2. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 320 b.
3. <http://sdkrashen.com/>
4. Rasulov, Z. I. (2011). Sintaksicheskiy ellipsis kak proyavlenie ekonomii yazyka): avtoreferat diss..kandidata filologicheskix nauk/Rasulov ZubaydulloIzomovich.-Samarkand,2011.